

MAVLUDI SHARIF”DA NOMLARI ZIKR QILINGAN PAYG’AMBARLAR HAQIDA

Muxitdinova Gulbahor Rustamdjanovna

Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Telefon:(90) 279-73-79

Telegram:(91) 342-45-31

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mulla Yo’ldosh Xilvatiyning “Mavludi sharif” asarida nomlari zikr qilingan Payg’ambarlar Odam, Nuh, Ibrohim, Ismoil, Dovud, Yusuf, Iso, Muhammad alayhissalomlar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, “nubuvvat”, “nabiy”, “rasul”, “Payg’ambar” tushunchalarining izohlari keltiriladi.

Kalit so’zlar: Payg’ambar, nubuvvat, nabiy, rasul, elchi, habib, shar’iy hukmlar, masih, malih, xil’at.

О ПРОРОКАХ, ИМЕНА КОТОРЫХ УПОМЯНУТЫ В «МАВЛЮДИ ШАРИФ»

Мухитдинова Гульбахор Рустамджановна

Независимый исследователь Наманганского
государственного университета

Телефон:(90) 279-73-79

Телеграм:(91) 342-45-31

Аннотация: В данной статье рассматриваются информации о пророках Адам, Ной, Авраам, Измаил, Давид, Иосиф, Иисус и Мухаммед, имена которых упоминаются в произведении Муллы Юлдаша Хильвати «Мавлюди Шариф». Также даются пояснения понятий «пророчество», «пророк», «посланник».

Ключевые слова: Пророк, пророчество, посланник, возлюбленный, правовые постановления, исцеляющий, малих, хилат.

ABOUT THE PROPHETS WHOSE NAMES ARE MENTIONED IN "MAVLUDI SHARIF"

Mukhitdinova Gulbakhor Rustamjanovna

Independent researcher of Namangan State University

Phone: (90) 279-73-79

Telegram: (91) 342-45-31

Abstract: This article examines information about the prophets Adam, Noah, Abraham, Ishmael, David, Joseph, Jesus and Muhammad, whose names are mentioned

in the work of Mullah Yuldash Hilvati "Mavludi Sharif". Also, explanations of the concepts of "prophecy", "prophet", "messenger" are given.

Key words: Prophet, prophecy, messenger, beloved, legal regulations, healing, malikh, khilat.

KIRISH

Dunyo yaralibdiki, inson zoti Allohning inoyati ila yashab, umrguzaronlik qiladi. Kimdir umrini ezgu amallar bajarish bilan o'tkazsa, yana kimdir aksincha, vaqtini behuda mashg'ulotlarga sarflaydi. Olam yaratilganidan so'ng Alloh barcha mavjudotlarga hayot bergan, shu qatori farishtalar, jinlar, malaklar ham vujudga kelgan. Insonlarni Allohning yagonaligiga ishonitirish, dinlarga e'tiqod qilish, yaxshilik urug'ini sochish, umrini toat-ibodatda o'tkazish, oxir oqibat jannatga yetishtirish maqsadida yer yuziga Payg'ambarlar yuborilgan. Ular ezgu niyatli, pok qalbli insonlar bo'lib, atrofida qilishga undaganlar. "Payg'ambarlar tarixi" kitobida "nubuvvat", "nabiy", "rasul" tushunchalariga quyidagicha ta'rif berilgan: "Nubuvvat – aql sohibi bo'lgan bandalarning dunyo va oxiratga oid amallari xususida Alloh va uning bandalari o'rtasida elchilik. Nabiy – farishta vositasida vahiy yoki ilhom shaklida yoxud solih tush orqali ogoh etilgan zot. Rasul – Alloh taoloning hukmlarini bandalariga yetkazish uchun Jabroil alayhissalom vositasida maxsus vahiy yuborilgan va ilohiy Kitob nozil qilingan komil inson. Dastlabki Payg'ambar Odam, so'nggi Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) hisoblanadi. Qur'onda nomlari keltirilgan Payg'ambarlar: Odam, Idris, Nuh, Hud, Solih, Ibrohim, Lut, Ismoil, Is'hoq, Ya'qub, Yusuf, Ayyub, Zul kifl, Shuayb, Muso, Horun, Ilyos, Alyasa', Yunus, Dovud, Sulaymon, Zakariyya, Yahyo, Iso va Muhammad (s.a.v.). Kitobda keltirilishicha, nabiylarning umumiy soni 124 mingtani tashkil etsa, rasullar soni 315 nafardan iborat. Shulardan eng ulug'lari quyidagilardir:

1. Nuh alayhissalom.
2. Ibrohim alayhissalom.
3. Muso alayhissalom.
4. Iso alayhissalom.
5. Muhammad alayhissalom (s.a.v.) [Atamurodov 1:11].

Muhammad (s.a.v.) ham nabiy, ham rasul bo'lganlar. Bu Qur'oni karimning Azhob surasi 40-oyatida keltirilgan: "Muhammad sizlarning erkaklaringizdan birortasiga ota emasdir, balki u Allohning elchisi va payg'ambarlarning muhridir. Alloh barcha narsani biluvchi zotdir" [Shayx Abdulaziz Mansur 2:31]. Diniy manbalarda guvohlik berilishicha, har bir Payg'ambarga o'ziga xos bir fazilat, hech kimga o'xshamaydigan bir xislat, boshqalardan ajratib turuvchi sifat in'om etilgan. Masalan, Iso "Masih", ya'ni jon ato etuvchi, Yusuf tengsiz husn sohibi, Dovud bemisl ovoz egasi, Sulaymon jonivorlar va jinlar tilini tushunadigan, ularni bo'ysundirish qudratiga ega bo'lgan zot hisoblanadi. Tarixdan ma'lumki, islom dini Payg'ambari

Muhammad alayhissalomga yer yuzida yashab o'tgan barcha Payg'ambarlarning xislatlari in'om etilgan. Ya'ni Ul Zoti sharif mukammal, komil inson sifatida butun dunyoga shuhrat qozonganlar. Tadqiqot jarayonida mazkur masala chuqur tahlil qilinadi va bu haqda batafsil ma'lumot beriladi. Xususan, namanganlik shoir Mulla Yo'ldosh Xilvatiyning “Mavludi sharif” asarida keltirilgan ma'lumotlar izohlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yer yuzida yashab o'tgan barcha Payg'ambarlarning hayot yo'llari, bosgan izlari, bajargan ezgu ishlari xususida arab, turk, fors-tojik, o'zbek tillarida juda ko'plab asarlar yozilgan. Tarixchilar, olimlar, shoir va yozuvchilar tomonidan mazkur mavzu borasida fikr-mulohazalar, munozaralar, mushohadalar berilgan. Masalan, islom dini Payg'ambari Muhammad alayhissalomning bemisl odob-axloqlari, go'zal xulqlari haqida arab olimlari, tarixchilari, diniy ulamolari Vahb ibn Munabbah, Urva ibn Zubayr, Abu Shomiy al-Maqdisiy, Ibnul-Javziy, Imom Navaviy, Ibnul-Jazariy, Ibn Hajar al-Asqaloni, Jaloliddin as-Suyutiy, Ibn Hajar al-Haytamiy va Ali al-Qoriy, Abdurahmon ibn Yoqub Chalabiy, Imom Ja'far Barzanjiylar kitob yozganlar. Fors-tojik adabiyoti vakillari Xusrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiylarning betakror g'azallari va dostonlarida ham aynan shu mavzuga keng o'rin ajratilgan. O'zbek shoir va yozuvchilari, tafsirchi, hadisshunoslari ham islom dini Payg'ambari Muhammad alayhissalom faoliyatlari haqida go'zal ma'lumotlar keltiradilar. Vatandoshlarimiz Imom Buxoriyning “Al jome' as sahih”, Termiziyniing “Shamoyili Nabaviya”, Alixonto'ra Sog'uniyning “Tarixi Muhammadiy”, Nosiruddin Rabg'uziyniing “Qissasi Rabg'uziy”, Ahmad Yassaviy, So'fi Olloyor, Sulaymon Boqirg'oniy, Alisher Navoiy, Bobur, Boborahim Mashrab kabi olim va shoirlarning ijod namunalarida Ul Zoti sharifning muborak ismlari chuqur ehtirom bilan yodga olinadi. Turk adibi Ahmad Lutfiy Qozonchining “Saodat asri qissalari” asari dunyodagi ko'p tillarga tarjima qilingan. O'zbekistonda o'zining cheksiz ilmu-ma'rifati jihatidan yetuk hisoblangan olim, din peshvolari orasida bilimdonligi, yuksak zakovati bilan olamga dong taratgan komil inson, marhum Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari tomonidan ko'p sonli diniy manbalar yaratilgan. Xususan, 2009-2013- yillarda nashr qilingan 6 juzdan iborat bo'lgan “Tafsiri Hilol” kitoblari, 2008-2012- yillarda nashrdan chiqqan “Hadis va hayot” kitobining 20-juz'idan o'rin olgan “Anbiyolar qissasi”, 2008-2009- yillarda e'lon qilingan, Imom Buxoriyning “Al adab al-Mufrad” asari sharhidan iborat bo'lgan “Odoblar xazinasi” asari, shuningdek, 2011- yilda nashr etilgan “Rasululloh sollalohu alayhi vasallam” asarida Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning hayotlariga doir ma'lumotlar, ul zotning insonlarga namuna bo'ladigan ishlari va ibodatlar haqidagi qimmatli fikrlar keltirilgan. Akmal Miravaz o'g'lining “Nur qatralari”, “Men ham tafakkur qilaman”, Adham Ibrohim o'g'lining “Eng komil inson” kabi kitoblari, qolaversa, yetuk adabiyotshunoslardan biri, filologiya fanlari doktori, professor Najmiddin

Komilovning “Komil inson haqida to’rt risola” (1997-y), “Tavhid asrori” (1999-y), “Tafakkur karvonlari” (1999-y), “Islom – ma’rifat dini” (2000), “Komil inson millat kelajagi” (2001-y), “Islom tafakkuri tarixidan” (2003-y), “Tasavvuf”(2009), “Badiiy adabiyot va tasavvuf timsollari” (2010-y) kabi kitoblarida ham bu mavzu keng yoritilganiga guvoh bo’lamiz.

Mazkur tadqiqot jarayonida mumtoz adabiyot vakillarining ijod mahsullarini chuqur o’rganish hamda tahlil qilish asnosida badiiy metoddan o’rinli foydalanilgan bo’lsa, qadimgi davr tarixida muhim o’rin tutgan manbalarni kuzatish barobarida tarixiy metoddan foydalanilgan. Shuningdek, Mulla Yo’ldosh Xilvatiyning “Mavludi sharif” asarida keltirilgan ma’lumotlar boshqa adiblarning asarlari bilan o’zaro qiyoslanib, qiyosiy metod asosida ma’lumotlar batafsil yoritilgan.

NATIJALAR VA XULOSALAR

“Payg’ambarlar tarixi” kitobida muborak Qur’oni karimda nomlari zikr etilgan buyuk Payg’ambarlardan Odam, Nuh, Ibrohim, Ismoil, Yusuf, Dovud, Iso, Muhammad alayhissalomlar haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, Odam alayhissalomning ilk Payg’ambar ekanligi, uning loydan yaratilganligi to’g’risida hikoya qilinadi: “Alloh taolo Odam (alayhissalom) va uning zurriyatini yer yuzida Allohning xalifasi bo’lib, u yerni obod qilishlari va ko’plab amali solihlarni bajarishlari uchun tanladi. Odam (alayhissalom) ta’limni Alloh taoloning O’zidan olgan va bu ilm nazar va fikr yo’li bilan amalga oshirilgan, u yerda biron xatolik e’ki yanglishish sodir bo’lmagan, chunki bu ilmni inson Allohdan bevosita olmoqda. Ushbu ilm sohibi Odam (alayhissalom) yer yuzida xalifa bo’lishi uchun tayèrlandi. Shu bilan yer yuziga eng odil qonunlar to’plami bo’lmish shar’iy hukmlar nozil bo’la boshladi” [Atamurodov 1:15].

Tarixiy manbalarda Nuh alayhissalom, uning kema yasab, mavjudotlarni to’fondan asrab qolganligi bayon etiladi. Bu Payg’ambar xususida ham kitobda quyidagi ma’lumotlar bayon etiladi: “Qur’oni karimning A’rof, Yunus, Hud, Mo’minun, Shuaro, Nuh va boshqa suralarida Nuh (alayhissalom)ning nasablari Odam (alayhissalom)ga borib taqalishi aytiladi. Zikr qilishlaricha, ularning orasidagi muddat taxminan 2000 yil bo’lgan. Qur’onda Nuh (alayhissalom)ning nomlari qirq uch joyda zikr qilib o’tilgan. Nuh (alayhissalom)ning qavmlari but-sanamlarga sig’inar edilar. Shunda Alloh taolo ularga O’zigagina ibodat qilish uchun chaqirishga va Undan o’zgaga ibodat qilishdan qaytarish maq’sadida Nuh (alayhissalom)ni yubordi”[Atamurodov 1:35].

Ibrohim (alayhissalom) to’g’risidagi qissa Qur’oni karimning ko’pgina suralarida, jumladan, Baqara, Oli Imron, An’om, Tavba, Hud, Ibrohim, Hijr, Nahl, Maryam, Anbiyo, Haj, Shuaro, Ankabut, Soffot, Zuxruf, Zorièt va boshqa suralarda hikoya qilinadi. Ibrohim (alayhissalom)ning ismlari Qur’oni karimning yetmishga yaqin joyida zikr qilinadi: “Ibrohim (alayhissalom)ning nasablari Nuh (alayhissalom)ga

borib taqaladi. Ibrohim (alayhissalom) Iroqning Bobil yerida dunëga kelganlar. Ibn Kasir aytadilar: Ibn Asokir Ikrimadan rivoyat qiladilar: Ibrohim (alayhissalom)ning kunyalari «Abu Zoyfan» («Mehmonlar otasi») edi. Ba’zi manbalarda Ibrohim (alayhissalom) Damashqning G’uta vodiysida tug’ilganliklari aytilgan. Ibrohim (alayhissalom) Bobil yeriga but-sanamlarga ibodat qiluvchi qavmlarini Alloh taolaga ixlos bilan ibodat qilishga chaqirish uchun qaytib keladilar” [Atamurodov 1:152].

Ismoil alayhissalom qissasiga ham kitobda o’rin ajratilgan bo’lib, bu insonning tug’ilishlari, taqdirlariga bitilgan bitiklar haqida turli fikrlar bildirilgan: “Ibrohim (alayhissalom) Hojarni o’z nikohlariga olib, undan Ismoil ismli o’g’il farzand ko’radilar va Ibrohim Hojar bilan Makkai mukarramaga hijrat qiladilar. Bir qancha vaqt o’tgach, Alloh taolo Ibrohim (alayhissalom)ga bir masjid qurishni amr etadi. Bu ishda o’g’il-lari Ismoil ham qatnashadi. Ibrohim (alayhissalom) o’z o’g’illarini qurbonlik qilmoqchi bo’lganlarida Ismoil (alayhissalom) bunga e’tiroz bildirmay, sabr qilishlarini aytdilar, so’ngra va’daga xilof ish qilmadi-lar. Buni quyidagi oyatda ko’rishimiz mumkin: “U (Ismoil) aytdi: “Ey otajon, senga buyurilgan ishni qil-gin. Inshaalloh, meni sabr qilguvchilardan topursan” (Soffot, 102). Alloh (subhonahu va taolo) Ismoil (alayhissalom)ning va’dasiga sodiq edi, deya vasf qilmoqda. Aslida barcha payg’ambar-lar ham shunday bo’lganlar, faqatgina bu yerda u kishining sharaf va fazllarini zohir qilish uchun eslatilmoqda. Ismoil (alay-hissalom) boshqa fazilatlardan ko’ra shu xislat bilan tanilganlar” [Atamurodov 1:152].

Yer yuzidagi eng go’zal yuzli Payg’ambar Yusuf alayhissalom qissasi ham ushbu asarda batafsil yoritilgan: “Yusuf – Allohning solih payg’ambarlaridan biri. Otasining ismi Ya’qub edi. Sahih hadislarning birida Ibn Umar (rozi-yal-lohu anhu) Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) dan rivoyat qiladi: “Darhaqiqat, Karim ibn Karim ibn Karim ibn Karim, Yusuf ibn Ya’qub ibn Ishoq ibn Ibrohimdir. U (Yusuf (alay-hissalom)) payg’ambar, otasi (Ya’qub) payg’ambar, bobosi (Ishoq) payg’ambar, otasining bobosi (Ibrohim) payg’ambardir” [Atamurodov 1:160].

Shuningdek, Dovud va Sulaymon alayhimussalom ikki hurmatli payg’ambar, ikki ulug’ podshoh bo’lishgani, Alloh taolo ikkisiga payg’ambarlik va podshohlik ne’matini bergani, Dovud alayhissalomning nasabi Ya’qub ibn Ishoq ibn Ibrohim alayhissalomga taqalishi aytiladi. Dovud Iso alayhissalom tug’ilishidan taxminan 1000 yilcha oldin Falastin diyorida tavallud topgan. U zot alayhissalomning ismlari Qur’oni karimning turli suralarda 10 marta takrorlangan [Atamurodov 1:345].

Iso Masih alayhissalom va onasi Maryam binti Imron qissasi Qur’oni karimning turli suralarida keltirilgan. Qolaversa, “Payg’ambarlar tarixi”da ham alohida o’rin ajratilgan: “Makkada ham, Madinada ham nozil bo’lgan suralarda Iso alayhissalom haqida ma’lumotlar bor. Maryam binti Imronning ismi Qur’oni karimda 34 marta, o’g’li Iso alayhissalomning ismi esa 25 marta takrorlangan. Shuningdek, “Maborak” ma’nosini anglatuvchi Iso alayhissalomning sharaflil laqabi bo’lgan “Masih” so’zi 11

marta zikr qilingan. Iso alayhissalom Falastin diyoridagi Quddus shahrining muborak yerlarida tugʻilib voyaga yetgan [Atamurodov 1:390].

Namanganlik shoir Mulla Yoʻldosh Xilvatiy ham Paygʻambarlar tarixini puxta oʻrgangan, oʻzidan avvalgi shoir va olimlarning asarlaridan ilhomlangan. “Mavludi sharif” asarini yozishdan avval Muhammad alayhissalomni tushida koʻrgan. Asarning bosh qahramoni sifatida Ul Zoti sharifning nomlarini zikr etgan. Kitob boshidan oxirigacha islom dini Paygʻambari Muhammad alayhissalom hayotlaridan hikoya qiladi. Biroq muallif dostonida boshqa Paygʻambarlarning nomlarini ham keltirib oʻtadi. Jumladan, mavlud kechasiga bagʻishlangan bobda Odam, Nuh, Ibrohim, Ismoil, Yusuf, Dovud, Iso alayhissalomlarni tilga oladi:

“Bir nido yetti qulogʻimgʻa bu dam,

Kim Muhammadga Karimu Zulkaram” [Xilvatiy 3:73].

Maʼnosi: “Bu damda (hozir) qulogʻimga bir nido (ovoz, chaqiriq) yetib keldi: Muhammadga (sallallohu alayhi vasallam) Karimu Zulkaram (behad saxiy va karim zot) bordir”. Yaʼni shoir bu oʻrinda “bir nido” soʻzini “ovoz”, “ilhom”, yoki “ruhiy chaqiriq” maʼnolarida qoʻllaydi. “Qulogʻimga yetdi”, yaʼni bevosita “eshitdim” yoki “qalban his qildim” maʼnosini ifodalaydi. “Karimu Zulkaram” – bu Arab tilidan kirib kelgan ibora boʻlib, “Karim” – saxiy, oliyjanob, “Zu-l-Karam” – buyuk karam sohibidir. Yaʼni Alloh taolo nazarda tutilmoqda. Misralar orqali muallif ilhomiy ruhiy holatni bayon qilgan: u bu lahzada qalban Allohning Muhammad (s.a.v)ga boʻlgan muhabbat va ehtiromini, buyuk karam sohibining (Allohning) Rasulullohga bergan ulugʻlik va fazlini his qilganini taʼriflagan.

“Safvati Odamni ehson ayladi

Riqqati Nuh birla mehmon ayladi” [Xilvatiy 3:73].

Maʼnosi: “Odam alayhissalomning safvotini (pokligini, barkamolligini) ehson qildi (baxsh etdi), Nuh alayhissalomning riqqatini (hamdardligini, mehribonligini) berdi”. Bu oʻrinda “Safvati Odam” — “safvat” arab tilida “poklik”, “tanlanganlik”, “barkamollik” maʼnosini bildiradi. Misrada “Odam alayhissalomning pok zoti” nazarda tutilgan. “Ehson ayladi” — bu ibora “berdi”, “baxsh etdi”, “mukofotladi” degan maʼnolarda kelgan. “Riqqati Nuh” — “riqqat” — yurak yumshoqligi, mehribonlik, qaygʻurish. “Nuh alayhissalomning yuragidagi shafqat” nazarda tutilgan. “Mehmon ayladi” — mehmon qilish, yaʼni u zotni sharaflab, ziyorat qilishday ulugʻ martaba berish. Shoir bu orqali Alloh taolo Paygʻambarlar zotini qanday ulugʻ fazilatlar bilan aziz qilganini tasvirlagan. Yaʼni Alloh taolo Odam alayhissalomga poklik va tanlanganlikni (safvat) baxsh etgan. Nuh alayhissalom esa insonlarga boʻlgan mehri, rahmi, sabri bilan tanilgan va Alloh uni ana shu fazilati bilan “mehmon” qilgan — yaʼni ulugʻlagan, sharaflagan.

“Xilʼati Ibrohim ila qildi shod

Ham Zabihulloh lisonin berdi yod” [Xilvatiy 3:73].

Ma’nosi: “Ibrohim (alayhissalom)ni xil’at (sharfli libos, ulug’lik) bilan shod etdi, Zabihulloh (Ismoil alayhissalom)ga esa til (zikr, shon-shuhrat)ni yod berdi (abadiy qildi)”. “Xil’at” — qadimda podshohlar yaqin kishilarga yoki katta shaxslarga ulug’lik alomati sifatida berilgan tantanali kiyim. Bu yerda u “sharaf, inoyat, ilohiy martaba” ma’nosini bildirgan. “Ibrohim ila qildi shod” — Alloh taolo Ibrohim alayhissalomni ulug’lik bilan shod qildi, unga karam va martabalar ato etdi. “Zabihulloh” — “qurbon qilingan zot” ma’nosini bildirib, bu nom Ismoil alayhissalomga nisbatan ishlatiladi. Qurbonlik voqeasi islomda katta ahamiyatga ega. “Lisonin berdi yod” — “Tilini yod qildi”, ya’ni uning nomi va zikrini abadiy qilgan, ulug’lashda davom ettirgan. Shoir tasvirlashicha, Alloh taolo o’zining do’st payg’ambari Ibrohim alayhissalomni ilohiy ne’matlar va ulug’lik bilan shod etgan. Shuningdek, uning o’g’li Ismoil alayhissalomni ham “Zabihulloh” maqomi bilan sharaflab, uning nomini va zikrini qiyomatgacha davom ettirdi. Bu Islomdagi qurbonlik an’anasiga ham ishoradir.

“Husni Yusufni inoyat ayladi

Savti Dovudni karomat ayladi” [Xilvatiy 3:73].

Ma’nosi: “Yusuf alayhissalomga go’zallikni inoyat qildi (baxsh etdi), Dovud alayhissalomga esa ovozinig go’zalligini karomat qildi (mo’jiza qilib berdi)”. “Husni Yusuf” — Yusuf alayhissalom o’zining beqiyos go’zalligi bilan mashhur. Uning go’zalligi shu darajada ediki, Qur’onda Zulayxo va ayollar qissasida bu alohida zikr etilgan. “Inoyat ayladi” — Alloh taolo unga bu fazilatni marhamat qildi, ya’ni bevosita ilohiy ne’mat sifatida berdi. “Savti Dovud” — Dovud alayhissalomga Alloh juda go’zal, ta’sirli ovoz bergan. Uning ovozdagi ta’sir kuchli bo’lib, hatto tog’lar va qushlar ham u bilan birga tasbeh aytar edilar. “Karomat ayladi” — bu fazilat mo’jiza darajasida bo’lgani ko’rsatilyapti. Alloh taolo uni ulug’ karomat sifatida ato etdi. Bu misralarda Payg’ambarlardan Yusuf va Dovud alayhissalomlar haqida gap ketmoqda. Alloh taolo Yusufga yuksak go’zallik (husn) va Dovudga ta’sirli, ilhomli ovoz (savt)ni inoyat va karomat tariqasida ato etgani zikr qilinmoqda. Bu ularning payg’ambarlik martabasi bilan birga, insonlarga ta’sir o’tkazuvchi xos fazilatlar ekanini ko’rsatadi.

“Lutf qildi judu ehsoni Masih

Chehrasin qildi sobihu ham malih” [Xilvatiy 3:73].

Ma’nosi: “Alloh Masihga (Iso alayhissalomga) o’z judu ehsoni (saxiyliigi va ne’matini) bilan lutf qildi, uning chehrasini yoru nurli va yuqori martabali qildi”. “Lutf qildi” — mehr, shafqat va yaxshilik bilan inoyat qildi. “Judu ehson” — “jud” – saxiylik, “ehson” – yaxshilik, ne’mat. Ya’ni Allohning keng rizqi va karami. “Masih” — Iso alayhissalomning unvoni. Uning “Masih” deb atalishi uning shifo berish mo’jizasi bilan bog’liq. “Chehrasin qildi” — ya’ni u zotning qiyofasi, siymosini. “Sobihu” — bu so’z “ochiq, ravshan, nurli” ma’nosini bildiradi. Ya’ni shoir ta’riflashicha, Alloh taolo Iso alayhissalomga o’zining keng ne’matlari va mehrini inoyat qilgan. U zotga shunday nurli chehra va ulug’ martaba ato etganki, bu uning

payg'ambarlik shon-shuhrati va mo''jizalarini aks ettiradi. Islom ta'limotiga ko'ra, Iso alayhissalom Allohning jonli mo''jizalaridan biri bo'lib, u o'liklarni tiriltirar va bemorlarga shifo beruvchi zot edi. She'ning bu qismlarida har bir ulug' payg'ambarga Alloh tomonidan berilgan alohida fazilat va inoyatlar tilga olingan. Misrada “sobih” va “malih” birgalikda ishlatilib, Iso alayhissalomning chehrasi nafaqat yorug' nurli, balki o'ta chiroyli va maftunkor bo'lgani ta'riflanmoqda. Ya'ni, Alloh taolo unga nafaqat ruhiy karomat, balki tashqi siymo ham bergan. Xilvatiy ta'riflashicha, Alloh taolo barcha ulug' payg'ambarlarga o'ziga xos ne'matlar va fazilatlar berdi:

- Odam alayhissalomga poklik,
- Nuhga mehribonlik va sabr,
- Ibrohimga xil'at va sharaf,
- Ismoilga qurbonlik sharafiga va abadiy zikr,
- Yusufga go'zallik,
- Dovudga ta'sirli ovoz,
- Iso alayhissalomga nurli, jozibador chehra va ilohiy karomatlar.

Misralar so'nggida shoir islom dini Payg'ambari Muhammad alayhissalomga ishora qiladi:

“Xullasi, shul jumla payg'ambarki bor

Barchasin vasfida qildi barqaror” [Xilvatiy 3:73].

Ma'nosi: “Xulosa shuki, qaysi payg'ambar bo'lmasin, ularning barchasi vasfini (sifatlarini) U zotda (Muhammadda) barqaror qildi”.

Bir so'z bilan aytganda, Alloh taolo barcha payg'ambarlarga alohida-alohida fazilat, xislat, karomat, jamol va ma'naviy ulug'lik bergan bo'lsa-da, u zot – Muhammad Mustafo (sallallohu alayhi vasallam) da bu fazilatlarining barchasini jamlagan. Ya'ni:

- Yusufning husni,
- Dovudning ovozi,
- Ibrohimning xil'ati,
- Ismoilning qurbonlik darajasi,
- Iso alayhissalomning nurli chehrasi va mo''jizalari.

Barchasi Rasululloh (s.a.v.) zotida to'la mujassam. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, doston islomiy irfoni an'anaga xos tarzda, payg'ambarlar tarixi va fazilatlarini orqali Muhammad (s.a.v.)ning ulug' maqomini yoritadi. Har bir payg'ambarda bo'lgan alohida fazilat — u zotda to'liq va barqaror holda mavjud. Bu esa, Islom aqidasi Muhammad (s.a.v.) ning “xotamun nabiyyin” — payg'ambarlar muhri, eng ulug'i, deb e'tirof etilishiga dalildir. Islomda, payg'ambarlar hayoti va ularning fazilatlarini, har bir musulmonning diniy va ma'naviy tarbiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Har bir payg'ambar o'ziga xos mukofot va Allohdan berilgan fazilatlar bilan taniqli bo'lgan. Biroq, shunga qaramay, barcha payg'ambarlar o'rtasida

eng ulug’i, albatta, Muhammad (s.a.v.)dir. Shu nuqtai nazardan, bir she’rda payg’ambarlarning fazilatlari va Muhammad (s.a.v.)ning ulug’ligi to’g’risidagi ta’riflar juda aniq va ishonchli bayon qilingan. Nomlari zikr etilgan payg’ambarlar har biri o’zining alohida fazilati bilan ajralib turadi. Masalan:

- Yusuf alayhissalom — o’zining beqiyos go’zalligi bilan mashhur. Uning go’zalligi na faqat jismoniy, balki ma’naviy ta’riflanadi. Alloh uning yuziga nur va charog’lik bergani sababli, uning yorungonlik va go’zalligi butun olamni maftun etgan.

- Dovud alayhissalom — ovozinging go’zalligi bilan tanilgan. Uning ovozi butun jahonni ezgulikka chaqiradi va hatto toshlar va qushlar uning ovozigacha quloq solar edilar. Uning ovozi, har bir musulmonga Allohga bo’lgan muhabbatni yoritish uchun kuchli vosita bo’lgan.
- Ibrohim alayhissalom — insonlar va Alloh o’rtasidagi o’zaro ishonch va baxtning ramzi bo’lgan. Uning xil’ati (pokligi) va uning barqaror imoni uning ulug’ligini namoyon etgan.

- Ismoil alayhissalom — Alloh yo’lida qurbon bo’lgan payg’ambar. Uning qurbonligi va sabri, o’zining oltin qadr-qimmatini bilan yodga olinadi.

Xilvatiy tasvirlashicha, Muhammad (s.a.v.)ning ulug’ligi va barcha payg’ambarlar fazilatlarining yagona jamlanmasi sifatida ta’riflanadi. Bu haqda "Barchasin vasfida qildi barqaror" deb aytilgan. Muhammad (s.a.v.) haqidagi bu ta’rif — uning nafaqat ma’naviy, balki jismoniy jihatdan ham o’ziga xos fazilatlarni o’z ichiga olganini ko’rsatadi. Muhammad (s.a.v.) ning husni, savti, axloqi, sabri va kamiga xosliklari barcha payg’ambarlar fazilatlarini yangidan to’plashdagi ulug’ maqomini namoyon qiladi. Uning hayoti, haqiqatan ham, Alloh taoloning xalqqa qilgan eng ulug’ ne’matidir. Muhammad (s.a.v.) insonlar orasida shaxsiyat va axloqda o’ziga xos o’rnak bo’lib, unga itoat qilish, uning sunnatlariga amal qilish — har bir musulmonning bunyodkorlik yo’lidir. She’riy parchalarda keltirilgan payg’ambarlarning fazilatlari, har birining Allohdan olingan muhim ta’riflari, mustahkam amal va ibodatning ahamiyatiga ishora qilmoqda. Barcha payg’ambarlar — Allohning ishonchli elchilari bo’lib, ularning hayoti bizga ibrat va tarbiya manbaidir. Ammo ularning o’rtasida, Muhammad (s.a.v.) — yagona va oxirgi payg’ambar bo’lib, uning hayoti va fazilatlari — barcha payg’ambarlarning xulosasidir. Muhammad (s.a.v.) ning barcha fazilatlari, uning o’zida mujassam bo’lgan alohida sifati bilan har birimizning hissiyatlarimizga ta’sir qiladi. She’rdagi “barchasin vasfida qildi barqaror” degan ma’no shundan iborat: barcha payg’ambarlar fazilatlari, ularning o’rnaklari va hayoti Muhammad (s.a.v.) da to’liq va mukammal shaklda mujassam. Unga itoat qilish va uning sunnatlariga amal qilish — har bir musulmonning dunyo va oxiratdagi vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Atamurodov, D.Boyzoqova. Payg’ambarlar tarixi, Toshkent: 2014.
2. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim.

3. Mulla Yo'ldosh Xilvatiy. Mavludi sharif, Toshkent:2021.
4. N. Komilov. Komil inson haqida to'rt risola, Toshkent:1997.
5. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Toshkent: 2008-2012.
6. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Toshkent: 2012.
7. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Anbiyolar qissasi. Toshkent: 2009.
8. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Odoblar xazinasi. Toshkent: 2009.
9. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Rasululloh sollalohu alayhi vasallam. Toshkent: 2011.